

## **“Olmaliq KMK” AJning**

### **“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” loyihaci to‘g‘risida**

#### **MA'LUMOTNOMA**

01.04.2024 y.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 2 maydagi PQ-4731-son qarori

**Loyihaning quvvati:** yillik **917 ming tonna** mis konsenrati va **2,5 ming tonna** molibden konsenrati.

**Loyiha qiymati:** **4 620,4 mln dollar**

**Joylashgan manzili:** Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, “Olmaliq KMK” AJ.

**Xomashyo bazasi:** Qalmoqqir, Yoshlik-1 konlari rudalarini qayta ishlash hisobiga ishlab chiqariladigan mis-molibden konsenratidan olinadigan mahsulotlar (mis katodi, oltin, kumush).

**Yaratiladigan ish o‘rni:** **5 647 ta**

**Elektr energiyasi sarfi:** yillik **568,7 mln KVt/s**

**Gaz iste‘moli xajmi:** yillik **3,3 mln m<sup>3</sup>**

**Tovar mahsulot:** yillik **3 594,5 mlrd so‘m**

**Eksport ko‘rsatkichlar:** yillik **241,6 mln dollar**

**Loyihani amalga oshirish muddatlari:** **2017-2025 yillar**

#### **I. Amalga oshirilgan ishlar.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 martdagi PQ-2807-son, 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son qarorlari va 2021 yil 10 sentyabrdagi F-5691-son Farmoyishi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 maydagi 267-F-son Farmoyishi va tegishli qarorlariga muvofiq **“Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish**” bo‘yicha **bosqichma-bosqich** (“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish”) investitsiya loyihasi (*keyingi o‘rinlarda - Loyiha*) amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 18 maydagi 266-son qaroriga muvofiq Loyihaning **I bosqich, 1-navbati** texnik-iqtisodiy asoslanishi tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra, tog‘-kon kompleksi, yillik **60 mln tonna** ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega 3-son mis boyitish fabrikasi (3-MBF), **65 mln tonna** ma‘danni tashish quvvatiga ega siklli-oqim texnologiyasi (TSOT-ma‘dan) va boshqa ishlab chiqarish va tashqi infratuzilma obyektlari qurilishi ko‘zda tutilgan.

**“Olmaliq KMK” AJ** tomonidan umumiy qiymati **4 620,4 mln dollar** bo‘lgan **“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish**” investitsiya loyihacining **I bosqichi** doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi.

Bugungi kunga qadar **“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish**” investitsiya loyihaci doirasida **jami 3080.0 mln dollar**, shu jumladan **joriy yil yanvar-mart** oyida **266.2 mln dollar** mablag‘lar o‘zlashtirildi hamda **yil yakuniga** qadar jami **1 179,0 mln dollar** o‘zlashtirilishi kutilmoqda.

*Ma‘lumot uchun.* Loyihaning **I bosqichi** amalga oshirilishi natijasida yiliga **65,0 mln tonna** ma‘dan qazib olinadigan **kon** (1,44 mlrd doll), **60,0 mln tonna** ma‘danni qayta ishlovchi **3-Mis** boyitish

fabrikasi (2 mlrd doll) va fabrika infratuzilmasi (1 mlrd doll) hamda 650 Megavatt quvvatga ega tashqi elektr ta'minoti (170 mln doll) quriladi.

### 1. TSOT-ma'dan obyektini qurish.

TSOT-ma'dan qurilish maydonchasida **5,47 mln kub m (99,6 foiz)** tuproq ishlari, **19,8 ming tonna (87 foiz)** armaturalash va **130,6 ming kub m (87 foiz)** beton ishlari bajarildi, **1 176 ta (90 foiz)** stav, **18,5 ming ta (86 foiz)** tayanch roliklari va **9,3 ming m (52 foiz)** konveyer tasmasi o'rnatilgan bo'lib, **99 ta** mutaxassis va **17 ta** maxsus texnikalar jalb qilingan.

**TSOT-ma'dan qurilishi loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari jami - 68 foizga bajarilgan bo'lib, bunda:**

1-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU) bo'yicha ishlar jami **67 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari – **95 foiz**, metall konstruksiyalar **1%**, va asosiy texnologik uskunalar montaji **41%**;

2-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU) bo'yicha ishlar jami **67 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari – **96 foiz**, metall konstruksiyalar montaji – **10 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji – **68 foiz**;

3-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU) bo'yicha ishlar jami **94 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari – **98 foiz**, metall konstruksiyalar montaji – **100 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji – **99 foiz** bajarildi;

302100-CV-101 rusumli Yer usti konveyeri bo'yicha ishlar jami **92 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **99 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **89 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **99 foiz** bajarildi;

302100-CV-201 rusumli Yer usti konveyeri bo'yicha ishlar jami **42 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **99 foiz**, metall konstruksiyalar **9%**, asosiy texnologik uskunalar montaji boshlanish arafasida.

#### 1.1. Asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berish.

**3 dona “Uralmashzavod”** (Rossiya) KKD 1500x200 rusumli birlamchi maydalagichi, **6 to'plam “AUMUND”** (Germaniya) plastinali ta'minlagich qurilish maydonchasiga yetkazib berildi, **2 to'plam “THYSSENKRUPP”** (Germaniya) magistral va **3 to'plam** yuk ag'daruvchi konveyerlari uchun asosiy butlovchi qismlarni yetkazib berish qisman yakunlandi. Shuningdek, **“URALKRAN”**ning **6 ta** ko'priqli krani va **27 ta** elektr tallari, **“Technopark Impuls”**ning (Rossiya) **2 to'plam** gidravlik bolg'ali manipulyator qurilmasi, **“PF ASK”**ning (Rossiya) **1 dona** konsolli krani hamda **“ASPEX”**ning (Rossiya) **3 to'plam** chang tozalash tizimi, **CHKZ**ning (Rossiya) **3 to'plam** havo siqish tizimi, **“WEIR”**ning (Turkiya) **5 to'plam** drenaj nasoslari, **“TEXNOKONT”**ning (Qozog'iston) **1 to'plam** 35/10kV nimstantsiyasi, **“EIM injiniring”**ning (Rossiya) **3 to'plam** qabul qilish bunkerining chang bostirish tizimi, **“VENKON”**ning (Rossiya) **3 to'plam** havo aylantirish tizimi yetkazib berildi.

#### 2. 3-MBFni qurish.

3-MBFni “tayyor holda topshirish” sharti bilan qurish ishlari **“Uralmashzavod” OAJ** va **“Enter Engineering”** konsortsiumi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Loyihalash ishlariga **“Wood”**, qurilishda texnik nazoratni amalga oshirishga **“Worley Parsons”** kompaniyalari jalb qilingan.

Qurilish maydonida **18,4 mln kub m (90 foiz)** tuproq ishlari, **643,0 ming kub m (85 foiz)** beton ishlari, **92,2 ming tonna (90 foiz)** armaturalash, **11,6 ming tonna (37 foiz)** texnologik uskuna va **19,3 ming tonna (33 foiz)** metall konstruksiya montaj qilindi.

**3-MBF qurilishi loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari jami - 44 foizga bajarilgan bo'lib, shu jumladan:**

Yirik maydalangan ma'dan ombori (CKDR) bo'yicha ishlar jami **92 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **96 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **88 foiz**;

O'rta holda maydalash binosi (KSD) bo'yicha ishlar jami **65 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **99 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **64 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **65 foiz**;

O'rta holda g'alvirlash binosi (KSG) bo'yicha ishlar jami **58 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **98 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **30 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji **13 foiz**;

Kichik holda maydalash binosi (KMD) bo'yicha ishlar jami **59 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **97 foiz**, metall konstruksiyalar montaji **32 foiz** boshlanish arafasida va asosiy texnologik uskunalar montaji - **33 foiz**;

Kichik holda g'alvirlash binosi (KMG) bo'yicha ishlar jami **50 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **92 foiz**, metall konstruksiyalar **9 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji boshlanish arafasida;

Ma'dan tayyorlash binosi (KRP) bo'yicha ishlar jami **38 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **87 foiz**, metall konstruksiyalar montaji **38 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji **43 foiz**;

Bosh flotatsiya binosi bo'yicha ishlar jami - **38 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **90 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **38 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **21 foiz**;

Mis-molibden kontsenratini quyultirish uchastkasi bo'yicha ishlar jami **40 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **68 foiz**, metall konstruksiyalar montaji boshlanish arafasida va asosiy texnologik uskunalar montaji - **44 foiz**;

Filtrlash va kontsenratni yuklash binosi bo'yicha ishlar jami **29 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **96 foiz**, metall konstruksiyalar **30%**, va asosiy texnologik uskunalar montaji boshlanish arafasida;

1-bosh pasaytiruvchi nimstansiya (GPP) bo'yicha ishlar jami **75 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **100 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **100 foiz**;

2-bosh pasaytiruvchi nimstansiya (GPP) bo'yicha ishlar jami **58 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **100 foiz**, va asosiy texnologik uskunalar montaji - **79 foiz**;

3-bosh pasaytiruvchi nimstansiya (GPP) bo'yicha ishlar jami **85 foizga** bajarilgan bo'lib, bunda beton ishlari - **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **100 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **100 foiz**;

Ma'muriy-maishiy bino (ABK) bo'yicha ishlar jami **70 foiz**, Maishiy bino (BK) bo'yicha esa **72 foiz** bajarildi.

3-MBF qurilishi maydoniga jami **9 260 ta** mutaxassis (*yordamchi xodimlar va metall konstruksiyalarni tayyorlash uchastkasi ishchilari hisobga olinmaganda*) va **820 ta** maxsus texnika jalb qilindi.

### 2.1. Asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berish.

**URALKRAN**ning 34 to'plam elektr qo'l kranlari, **“ASPEX”**ning (Rossiya) 2 to'plam havo tortish tizimi, **“AUMUND”**ning 16 to'plam, **“PTM”**ning 2 to'plam tasmali konveyeri hamda **“WEIR”**ning 8 dona drenaj nasosi yetkazildi.

O'rta holda maydalash binosi (KSD) uchun **“Uralmashzavod”**ning 8 ta KSD 3000/1500 rusumli konusli maydalagichi, **“URALKRAN”**ning 2 to'plam ko'priqli elektr krani, **“ASPEX”**ning 8 to'plam havo tortish tizimi hamda **“WEIR”**ning 6 dona drenaj nasosi, **“PTM”**ning tasmali konveyerlar uchun 8 to'plam, **“URALKRAN”**ning 9 to'plam elektr qo'l kranlari, **“AUMUND”**ning 16 to'plam tasmali ta'minlagichlari yetkazib berildi.

O'rta holda g'alvirlash binosi (KSG) uchun **“Pnevmash”**ning 8 ta tebranuvchi g'alviri, **“ASPEX”**ning 4 to'plam havo tortish tizimi, **“PTM”**ning 16 to'plam tasmali konveyeri, **“BMX RUS”**ning 4 to'plam aravachali yuk tushirish konveyeri hamda **“WEIR”**ning 5 dona drenaj nasosi yetkazildi, **“URALKRAN”**ning 3 to'plam elektr krani, **“AUMUND”**ning 16 to'plam tasmali ta'minlagichlari yetkazib berildi.

Kichik holda maydalash binosi (KMD) uchun **“URALKRAN”**ning 2 to'plam ko'priqli elektr krani va 7 to'plam elektr tallari, **“PTM”**ning 8 to'plam tasmali konveyeri, **“BMX RUS”**ning 6 to'plam tasmali uzatgich, **“WEIR”**ning 5 dona drenaj nasosi hamda **“ASPEX”**ning 6 to'plam havo tortish tizimi va **“THYSSENKRUPP”**ning (Germaniya) 6 to'plam HPGR yuqori bosimli rolikli presslash uskunalari yetkazildi.

Kichik holda g'alvirlash binosi (KMG) uchun **“Kwatani”**ning (SEVER MINERALS, Janubiy Afrika) 24 ta uchlamchi g'alviri, **“URALKRAN”**ning 4 to'plam ko'priqli elektr krani hamda 28 to'plam elektr tallari, **“PTM”**ning 2 to'plam tasmali konveyeri, **“BMX RUS”**ning 24 to'plam tasmali uzatgichi va 4 to'plam aravachali yuk tushirish konveyeri hamda **“WEIR”**ning 6 dona drenaj nasosi yetkazib berildi.

Ma'dan tayyorlash binosi (KRP) uchun **“UZTM-KARTEKS”**ning 4 to'plam sharli tegirmoni (MSHTS) va 5,6,7,8,9,10,11,12 -MSHTSni yuklash va yetkazish davom etmoqda (UZTM tomonidan MSHTS uchun butlovchilar/qismlar yetkazib berish muddatlari maqbullashtirildi), **“Kwatani”**ning 47 ta gravitatsiyali himoya g'alviri, **“URALKRAN”**ning 4 to'plam ko'priqli krani va 72 to'plam elektr krani hamda **“WEIR”**ning 24 dona drenaj nasoslari va 12 to'plam gidrotsikloni, 16 to'plam «INTERTECH» (Serbiya) tegirmonlari uchun gravitatsiyali konsentrator yetkazib berildi.

Shuningdek, sharli tegirmon uchun **“CEMTEC”**ning (Avstriya) 12 to'plam gidrostatik podshipniklari, **“CEMTEC”**ning (Niderlandiya) 12 to'plam tishli tojlari, **“ABB Switzerland Ltd”**ning 25 to'plam tegirmon dvigateli va 12 to'plam chilleri, **“NAIPU”**ning (Xitoy) 12 ta tegirmon uchun silindrik butaralari, **“DALIAN LEVVIE”**ning (Xitoy) 12 to'plam avtomatik shar yuklagichi hamda **“GEARS MINING”**ning (Avstraliya) 2 to'plam qobiq (futerovka) almashtirish mashinasi va 3 to'plam boltlarni chiqarib tashlash bolg'asi yetkazildi.

Mis-molibden konsentratini quyultirish uchastkasi uchun **“Metso:Outotec”**ning (Xitoy) quyultirgichlar uchun 4 to'plam vertikal tegirmon, 2 to'plam filtr (Mo), quyultirgichlar uchun 6 to'plam reduktor, 6 dona 17 metrli, 2 dona 28 metrli, 1 dona 5 metrli sig'imlar, **“Metso:Outotec”**ning (Evropa) barcha quyuqlashtiruvchilariga asosiy uskunalari yetkazib berildi.

Bosh flotatsiya binosi uchun **“Metso:Outotec”**ning (Xitoy) 5 va 6-flotatsiya liniyalari yetkazib berildi, shuningdek, qolgan

**4 ta** flotatsiya liniyalari yetkazilmoqda, “Metso:Outotec”ning (Evropa) **6 ta** flotatsiya liniyalariga asosiy uskunalari yetkazib berildi.

1 va 3-bosh pasaytiruvchi nimstansiyalar (GPP) uchun asosiy butlovchilari yetkazilgan, 2-bosh pasaytiruvchi nimstansiyasi uchun “TEXNOKONT”ning (Qozog‘iston) **4 dona** kuchlanish transformatorlar yetkazib berilmagan.

Asosiy zavod xo‘jaligi qismi uchun (OZX) “Airpol”ning (Polsha) **4 to‘plam** havo siqish tizimi yetkazib berildi.

### **3. 3-MBF infratuzilma obyektlarini qurish.**

**Qoldiqlarni saqlash xo‘jaligida** to‘g‘on poydevorini qurish bo‘yicha **14,8 mln kub m (22 foiz)** tuproq ishlari bajarildi va **3,2 ming m (11 foiz)** quvur yotqizildi. Mazkur ishlarga **190 ta** quruvchi va **260 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

**Tashqi suv ta‘minoti (23,5 ming kub m/soat)** obyektlari uchun zarur bo‘lgan yer maydonlari ajratilib (**712 ga**), “Qoraxitoy” yer osti suv havzasida **58 km** (60 foiz) suv quvurlari yotqizildi, shuningdek, **117 ta (jami 120 ta)** quduq burg‘ulash ishlari, **1,238 mln kub m (68 foiz)** tuproq ishlari, **2,6 ming tonna (78 foiz)** armaturalash, **14,1 ming kub m (65 foiz)** beton ishlari bajarildi. Ushbu ishlarga **377 ta** quruvchi va **85 ta** maxsus texnika jalb qilindi.

Hozirgi kunda, 3-MBF va uning infratuzilma obyektlari qurilishiga jami **9 926 ta** mutaxassis (*yordamchi xodimlar va metall konstruksiyalarni tayyorlash uchastkasi ishchilari hisobga olinmaganda*) va **1 182 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

### **4. Moliyalashtirishni jalb qilish.**

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 noyabrdagi qaroriga muvofiq maxsus hisobraqamlar ochildi.

**1,0 mlrd dollarlik** kredit shartnomasi doirasida 2022 yil 13 sentyabrda **600,0 mln dollar** va 12 dekabrda **400,0 mln dollar** olingan. Bunda, jami **1,0 mlrd dollardan**, shu jumladan, Loyiha ofisi obyektlari perimetri doirasida **678,0 mln dollar** o‘zlashtirilgan.

“Международные проекты развития” kompaniyasi bilan **712,0 mln yevro** ekvivalentida moliyalashtirishni jalb qilish bo‘yicha qarz shartnomasi imzolangan bo‘lib, unga ko‘ra, 2024 yil 1 mart holatiga **224,3 mln yevro** qiymatidagi mablag‘lar o‘zlashtirildi.

3-MBF va uning infratuzilma obyektlarini qurish bo‘yicha tuzilgan **ERS-shartnoma** doirasida **1 380,5 mln dollar (98,6 mln dollar QQSn** hisobga olgan holda) miqdorida mablag‘ tanlab olindi.

### **5. Loyiha ofisi obyektlari perimetri doirasida amalga oshiriladigan ishlar:**

**1. “TSOT-ma’dan”** obyekti bo‘yicha **2024 yil may oyi yakunida** 3-son maydalash-yuklash qurilmasi (**DPU-3**) va **TSOT-ma’dan 1-liniyasida** yuklama ostida sinovlar o‘tkazilishi ta‘minlanadi.

**2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023 yil 27 oktyabrdagi 26/1-410-son** topshirig‘iga muvofiq barcha tegishli resurslar (ishchi kuchi va maxsus texnika)ni safarbar qilgan holda **2024 yil 31 maygacha** 3-MBF birinchi liniyasi qurilish-montaj ishlarini yakunlash hamda **2024 yil 31 dekabrgacha** fabrikani to‘liq quvvatida ishga tushirish bo‘yicha choralar ko‘rish ko‘zda tutilgan.

**3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida o‘tkazilgan 2023 yil 9 noyabrdagi 200-son (09.11.2023 yildagi VM-1218-son bilan ro‘yxatga olingan)** hamda Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining **2023**

yil 29 noyabrdagi 106-son (30.11.2023 yildagi 04-01-149-son bilan ro'yxatga olingan) yig'ilish bayonlariga muvofiq:

- 2024 yil may oyida "Yoshlik I" kareri va 3-MBF birinchi liniyalari qurilish-montaj ishlarini yakunlash;

- 2024 yil yakuniga qadar "Yoshlik I" konini o'zlashtirish loyihasini (I bosqich, birinchi navbat) to'liq quvvatida ishga tushirish belgilangan.

4. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023 yil 16 noyabrdagi 107-son bayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmonining yiliga 60 mln tn ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 3-MBFni ishga tushirishga doir 42.2-bandi muddatini 2024 yil 31 dekabrgacha uzaytirish maqsadga muvofiqligi ko'rsatilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan 3-MBF va uning infratuzilma obyektlarini qurishni jadallashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga (2024 yil 10 fevraldagi 26/1-410-son topshiriq) muvofiq 2024 yil may oyida 3-MBF birinchi liniyasini hamda 2024 yil yakuniga qadar fabrikani to'liq quvvatida ishga tushirilishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish belgilangan.

6. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2024 yil 20 fevraldagi 15-son bayoniga ko'ra, 3-MBF qurilish-montaj ishlarini yakunlash va uning 1-liniyasini ishga tushirish muddati 2024 yil 25 mayga qadar uzaytirilgan.

6. "Yoshlik I" konida karerni qurish va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish.

Karerni qurish bo'yicha loyiha boshidan:

183,5 mln m<sup>3</sup> (yil boshidan 9,6 mln m<sup>3</sup>) kon yuzasini ochish ishlari bajarildi (ishlar 2 smenada tashkil etilib, 1 743 nafar ishchi-xodimlar va 400 ta texnika ishlamoqda) hamda 33,3 km temir yo'llar yotqizildi;

597 ta (450 mln dollar) kon texnikasi (54 ta 130 tonnalik va 29 ta 220 tonnalik BelAZ samosvallari, 33 ta ekskavator, 23 ta burg'ilash uskunasi, 12 ta aralashtirish-zaryadlash mashinalari) 254 ta (50 mln dollar) temir yo'l texnikasi (1 ta elektrovoz, 5 ta teplovoz, 212 ta dumpkar, 7 ta yo'l qurish texnikasi) shuningdek 192 ta yordamchi texnika) xarid qilindi;

yiliga 25 mln m<sup>3</sup> bo'sh tog' jismlarini tashuvchi Siklli oqim texnologiyasini ("TSPT-poroda") qurish uchun 6.1 mln m<sup>3</sup>dan ortiq yer ishlari amalga oshirildi;

"Yoshlik I" konida karerni qurish va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish.

1) Joriy yil yakuniga qadar yana 50,4 mln m<sup>3</sup> kon ochish ishlari bajariladi.

2) Joriy yil yakuniga qadar Tog'-kon majmuasi va infrastrukturasi quyidagi obyektlari foydalanishga topshiriladi:

Kompressor stantsiyasi, 2-mexanik qurilmalarni yig'ish sexi va poliuretan mahsulotlari sexi;

ASU GTK, 8,2 km ichki avtomobil yo'llari, 13 km kon ichki temir yo'llari, 4 ta temir yo'l stansiyalarining mikroprotessorli markazi va o'qlar hisobining elektron tizimi, namunalarni kesish va tahlil qilish laboratoriyasi.

3) bo'sh tog' jismlarini tashuvchi Siklli oqim texnologiyasi ("TSPT-poroda") bo'yicha yil yakuniga qadar qurilish ishlari amalga oshiriladi.